

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA ULARNING
PSIXOLOGIYASI**

Abdinabiyeva Shaxina Shavkat Qizi

*Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti
2- bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada jamiyatimizda mavjud bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalar va ularning psixologiyasi, jamiyatda tutgan o'rni, yaratilayotgan imkoniyatlar, ta'lim shakli, integratsion va inklyuziv yondashmalar, batafsil yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Ijtimoiy himoya, inklyuziv ta'lim, discomfort, intellektual rivojlanish, sensorika, motorika, zaiflik, cheklanganlik, ijtimoiy qarovsizlik, zaif ko'ruvchi, zaif eshituvchi, inklyuziv ta'lim konsepsiyasi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra taxminan 450 mln. insonda psixik va jismoniy rivojlanishda buzilishlar mavjudligi aniqlangan. Bu yer yuzidagi aholining 1/10 qismini tashkil qiladi.

Bundaylar qatoriga: eshitish sezgisida buzilishlari mavjud insonlar (kar, zaif eshituvchi, orttirilgan kar insonlar); nutqida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (logopatlar); intellektual rivojlanishida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (aqli zaif insonlar); psixik rivojlanishida kompleksli buzilishlar kuzatiluvchilar (ko'r hamda kar-soqov insonlar, ko'r hamda aqli zaif insonlar va boshqalar); tayanch apparat tizimida kasalliklari mavjud; psixopat xulqli insonlar kiradi. Bundan tashqari shunday qatlami borki, ular o'rta ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasalariga boradilar. Salbiy ijtimoiy omillar va ayniqsa shaxslararo munosabatlar ta'sirida diskomfort holatini boshdan kechiradilar, ushbu holat ularning ulg'ayishi bilan oshib boradi. Keyinchalik psixojarohatlovchi ta'sirga ega bo'ladi. Shunga muvofiq, bunday insonlarga jamiyatda moslashishi uchun alohida yordam kerak bo'ladi. Xalqaro ijtimoiy zaiflik va cheklangan hayot faoliyati hamda buzilishlar nomenklaturasiga muvofiq "hayot faoliyatining

cheklanganligi tushunchasi ostida berilgan yosh davri uchun normal hisoblangan faoliyatni bajarish, yoki uni bajarish usullarini amalga oshirishdagi har qanday cheklanganlik tushuniladi". Hayot faoliyatining cheklanganlik darajasi aynan shu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan "og'irlik shkalasi" orqali miqdoriy ko'rsatkichlarda aniqlanadi. Turg'un funksional buzilishlarga ega bolalarning aksariyati bu nogiron insonlardir. Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan tasnifnomaga ko'ra organizmdagi domiy buzilishlarga olib keluvchi, hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi, alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi. Bunday ijtimoiy yordam yo'nalishlaridan biri zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy reabilitasiya hisoblanadi. Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy reabilitasiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir. Unining asosiy vazifasi - maxsus tashkil etilgan suhbat vositasida shaxsning ijtimoiy statusini tiklash, uning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini ta'minlashdir. Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy reabilitasiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir. Unining asosiy vazifasi - maxsus tashkil etilgan suhbat vositasida shaxsning ijtimoiy statusini tiklash, uning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini ta'minlashdir.

Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi quyidagilarda:

Olam bilan aloqaning buzilganligi;

Kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;

Tabiat bilan muloqotning cheklanganligi;

Bir qator madaniy qadriyatlaming yetishib bo'lmazligi muammosi;

Elementar ta'limni oloymaslik. Bu muammo faqatgina sub'yektiv bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir;

Qobiliyat va iste'dodni namoyon qilishni chegaralanganligi. Nogiron bola tengdoshi kabi qobiliyatli iste'dodli bo'lishi mumkin, biroq o'z

qobiliyatlarini rivojlantirish, aniqlash va ular orqali jamiyatga foyda keltirishi uchun unga imkoniyatlarning teng emasligi to'sqinlik qiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, imkoniyati cheklangan insonlarning psixologik holatida quyidagi emotsional hodisalar kuzatiladi: 1. Tengdoshlari va yaqinlari bilan muloqotning o'tkir yetishmasligi hissi;

2. Kasallikning rivojlanishi natijasida, yoki tanani mayib qiluvchi davolash usuli ta'sirida o'zining "Jismoniy meni"ni qabul qilishdagi qiyinchilikni (bola davolash ta'sirida semiradi, sochi to'kilib ketadi, tez o'sadi, buning ta'sirida bola dorilarni iste'mol qilishdan bosh tortishi mumkin) paydo bo'lishi;

3. Ijtimoiy qarovsizlik, zaiflik, jamiyat tomonidan voz kechish hissining paydo bo'lishi;

4. Qo'rquvlar (ko'pincha, paradoksal xarakterga ega bo'ladi: ular bolaning hozirgi paytdagi aktual holati bilan bog'liq va qisman kelajakda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar bilan bog'liq bo'ladi);

5. Oldinda kutayotgan operatsiya bilan bog'liq qo'rquv;

6. Kasallikning residivi oldida qo'rquv;

7. Yolg'izlik hissi, ammo ayni paytda bola u uchun ahamiyatli bo'lgan insonlar bilan uchrashishdan ham qo'rqishi mumkin; 8. 4-5 yoshdan boshlab his etiladigan o'limdan qo'rqish hissi (yetti yoshli bola: atrofimda bolalar o'lmoqda, men ham tez orada o'lishim mumkin, buni bilaman, men o'limdan qo'rqaman); Imkoniyati cheklangan ayollar bilan ijtimoiy reabilitasion ishlarni olib borishda mana shu xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyat ko'rsatish kerak...

Umida Bo'tayeva

Samarqand davlat universiteti

Psixologiya nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri

– 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha rasmiy tarzda 710 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxs ro'yxatga olingan. Ularning 101 ming nafari – 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalardan iborat Bu

bolalarni ta'limga qamrab olinishida kamchiliklar bor. Masalan, ta'lim bilan qamrab olinmagan, uyda o'tirib qolayotgan imkoniyati cheklangan bolalar bor. Agar maktablarda inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish uchun sharoit yaratilsa, 101 ming imkoniyati cheklangan bolalarning 80 ming nafari bemalol maktabga bora oladi. Hozir «Ta'lim to'g'risida»gi qonun Senat tomonidan ko'rib chiqilyapti. Qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'lim to'g'risidagi band kiritilyapti. Biroq bu modda xalqaro talablarga javob bermaydi. Moddada maktablarda nogiron bolalarga sharoit yaratib berilsa, imkoniyati cheklangan bolalar u yerda ta'lim olishlari mumkinligi aytilmoqda. Agar sharoit yaratilmasa-chi? Shuning uchun biz bu borada o'z takliflarimizni ishlab chiqdik va Senatga yubormoqchimiz. Unda quyidagilar nazarda tutilmoqda: **Avvalo**, qonunda inklyuziv ta'lim tushunchasini ochib berish lozim. Sababi bizda hozirgacha bu tushuncha aniq ochib berilmagan. Maktablarda inklyuziv muhit yaratish davlat tomonidan majburiy bo'lishi kerak. Hozirgi qonunga ko'ra, maktablarda imkon bo'lsa, inklyuziv ta'lim sharoiti yaratilishi, imkon bo'lmasa, yaratilmasligi mumkinligi aytilgan. Imkoniyati cheklangan bolalar ham O'zbekiston fuqarolari, ular ham boshqalar qatori ta'lim olish huquqiga ega.

Bolalarning sifatli ta'lim olishi juda muhim. 2019 yil holatiga ko'ra, 710 mingga yaqin nogiron fuqarolarning 609 ming nafari 16 yoshdan kattalar va ularning bor-yo'g'i 10 foizi oliy ma'lumotli hisoblanadi. Ko'rinib turganidek, oliy ma'lumotli nogiron fuqarolar juda kam. Biroq kambag'allikni qisqartirishning asosiy shartlaridan biri – oliy ta'lim berish. Bundan tashqari, nogironlar uchun ta'lim yashash quroli sanaladi. Ularda jismoniy mehnat bilan shug'ullanish imkoni kam bo'ladi, shuning uchun sifatli ta'lim olish va oliy ma'lumotli bo'lish orqali daromad topish imkoniga ega bo'lishadi. Oliy ma'lumoti bo'lmagan nogironlar ko'p hollarda uyda o'tirib qolishadi. Ayni paytda, O'zbekiston bo'yicha kam ta'minlangan fuqarolarning 3 foizi mahallalardagi kam ta'minlanganlar ro'yxatida turadi. Sababi mahalla mutasaddilari nogironligi bor shaxsning nafaqa pulini ham daromad sifatida qayd etishadi. Biroq bu nafaqa puli daromad emas, nogironlik uchun to'lanadigan kompensatsiya hisoblanadi. Biz mana shuni ham tushuntirishga

harakat qilyapmiz. Lekin umumiy hisobda ta'lim olish imkonini oshirish orqali imkoniyati cheklangan shaxslarning kelajagini yaxshilash imkoniga ega bo'lamiz.

«Oldingi vazir va'da bergandi, lekin amalga oshmadi...»

Bahodir Qurbonov, Musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi: – Imkoniyati cheklangan bolalarning keyinchalik soha tanlashi cheklangan. Ularga musiqa va san'at ta'limini berish orqali kelajakda kasb tanlashiga yordam berish mumkin. Bundan tashqari, musiqa ta'limi imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulchehra Mirzaeva, Toshkent tibbiyot akademiyasi Matbuot kotibi fikrlari.
2. Umida Bo'tayeva, Samarqand davlat universiteti Psixologiya nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri fikrlari.
3. Gulbahon QOSIMOVA, Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'rg'on tepa tumani bo'limi rahbari. Fikrlari.
4. Oydin Abdullayeva, Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati: qarorlari.
5. Feruza Muhammadjonova, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi raisi o'rinbosari fikrlari.
6. Hamdam Niyozov, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Yoshlar ishlari bo'lim boshlig'i fikrlari.
7. Suxrob Xoliqov, Xalq ta'limi vazirligi Bolalarni ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari fikrlari.
8. Zilola G'aybullayeva fikrlari.